metodicheskoe posobie dlya uchiteley, Ministerstvo zdravooxraneniya Respublike Uzbekistan. Tashkent 2011 g.

5. Natsionalnaya programma po borbe protiv tabaka v Respublike Uzbekistan na 2008 – 2012 gg. Tashkent 2007 g.

### 3.2.6. Modul: Tez tibbiy yordam xizmati tizimi haqida umumiy ma'lumot. Tez tibbiy yordam dispetcheri o'ziga xos professional xususiyatlari. Tez tibbiy yordam stansiyalarida dispetcherning roli va vazifalari

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit</b>	<b>6 kredit</b>
<b>O'quv modul yakunida bilishi lozim</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- Tinglovchi tez tibbiy yordam xizmati haqida umumiy ma'lumotlarni;</li><li>- Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni;</li><li>- Xizmati aloxida o'rin tutishini;</li><li>- Baxtsiz xodisa, shikastlanish va to'satdan og'rib qolish xollari, kutilmagan sharoit va joylarda tashxis qo'yish xamda shikastlangan shaxs axvolining og'irligi, jaroxat va kasallikni xususiyatiga qarab shoshilinch yordam ko'rsatishni;</li><li>- Tez tibbiy yordam stansiyalarida dispetcherning roli va vazifalarini;</li><li>- Tez tibbiy yordamni tezkorligini, barcha xudud bo'yicha tez tibbiy yordam chaqiriqlarini qabul qilishni;</li><li>- Tez tibbiy yordam xizmati faoliyatida tezkor statistik axborot va xisobotlarni shakillantirishni;</li></ul>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim</b>	Tinglovchi baxtsiz xodisa, shikastlanish va to'satdan og'rib qolish xollari, kutilmagan sharoit va joylarda tashxis qo'yish xamda shikastlangan shaxs axvolining og'irligi, jaroxat va kasallikni xususiyatiga qarab shoshilinch yordam ko'rsatishni. Barcha xudud bo'yicha tez tibbiy yordam chaqiriqlarini qabul qilishni.
<b>O'quv moduli mazmuni</b>	Tez tibbiy yordam stansiyasi fuqarolarning sog'lig'iga yoki xayotiga havf tug'diruvchi to'satdan kelib chiqqan kasalliklar, surunkali kasalliklarning xuruji, baxtsiz xodisalar, shikastlanishlar va zaxarlanganlar, xomiladorlik asoratlari va tug'ruq davrida xodisa sodir bo'lgan joyda yoki shifoxonaga borish vaqtida kattalarga va bolalarga kecha-kunduz tibbiy

	<p>yordam ko'rsatishga mo'ljallangan, RShTYOIM viloyat filialining tarkibiy davolash-profilaktika bo'linmasi xisoblanadi.</p> <p>Tez tibbiy yordam stansiyasi aholiga 50 ming kishidan ortiq bo'lgan shaxarlarda tashkil etiladi. Axoli soni 50 minggacha bo'lgan axoli punktlarida shaxar, markaziy tuman va shifoxonalar tarkibiga kiruvchi tez yordam bo'limlari tashkil etiladi.</p> <p>Axoli soni 100 mingdan ortiq bo'lgan shaxarlarda axoli punktining tarqoqligi va xududning joylashgan joyi va o'rnini xisobga olgan holda stansiyalarning bo'linmalari sifatida tez tibbiy yordam podstansiyalari tashkil etiladi.</p>
<b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublika Shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi. "Tez tibbiy yordam dispetcherlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma". – Toshkent-2022 yil</li> <li>2. Sog'liqni saqlash vazirining 2017 yil 31 mart 131-sonli bo'yruq'iga asosan "Tez tibbiy yordam chaqiruvlarini qabul qilishning dispetcherlik saralash bayonomalari".Тoшкент-2017 йил</li> <li>3. Tez tibbiy yordam xizmati dispetcherlari uchun milliy klinik bayonnomalar . Toshkent- 2022 yil</li> </ol>

### 3.2.7 Modul: Fuqarolar murojaatlarini qabul qilishda

dispetcherning qadamma- qadam bajaradigan asosiy harakatlar algoritmi.

**Aholi turar joylari topografiyasi va davolash profilaktika muassasalarining joylashish xaritasi bilan ishlash.**

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O'quv modul yakunida bilishi lozim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tinglovchi tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimining tashkil etilishi, uning vazifalari, tez tibbiy yordam tizimining strukturasiIII;</li> <li>- Tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etishda dispetcherning vazifalarini;</li> <li>- xuquq va majburiyatlarini;</li> <li>- Tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish va fuqarolardan murojatnomalar qabul qilish;</li> <li>- Tez tibbiy yordam brigadalarini manzilga to'g'ri va tez yo'naltirish uchun aholi turar joylari topografiyasini;</li> <li>- Davolash profilaktika muassasalarining joylashish xaritasi bilan ishlashni.</li> </ul>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi</b>	Tinglovchi tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etishda dispetcherning vazifalarini, tez tibbiy yordam xizmatini tez va

<b>bajara olishi lozim</b>	to'g'ri tashkil etish va fuqarolardan murojatnomalarni to'g'ri qabul qilish va tez tibbiy yordam brigadalarini manzilga to'g'ri va tez yo'naltirish, aholi turar joylari topografiyasi va davolash profilaktika muassasalarining joylashish xaritasi bilan ishlashni.
<b>O'quv moduli mazmuni</b>	Aholiga yuqori texnologik va malakali shoshilinch tez va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam xizmatini tashkil etish, dispechrning vazifalari, tez tibbiy yordam tizimining strukturasi, Dispatcher chaqiriqqa jo'natish funksiyasining uchta fazasi: 1chi faza- chaqiriqni qabul qilish 2chi faza-chaqiriqqa brigadani jo'natish 3chi faza-brigadani jo'natishdan keyingi dispechr harakatlari (telefon orqali yordam ko'rsatish). Tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish va fuqarolardan murojaatnomalar qabul qilish va tez tibbiy yordam brigadalarini manzilga to'g'ri va tez yo'naltirish uchun aholi turar joylari topografiyasi va davolash profilaktika muassasalarining joylashish xaritasi (karta) bilan ishlashni o'rganish.
<b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b>	1. O'zbekiston Respublika Shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi. "Tez tibbiy yordam dispetcherlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma". – Toshkent-2022 yil 2. Sog'liqni saqlash vazirining 2017 yil 31 mart 131-sonli bo'yruq'iga asosan "Tez tibbiy yordam chaqiruvlarini qabul qilishning dispetcherlik saralash bayonomalari". Тошкент- 2017 йил

**3.2.8. Modul: Tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmatida resurslarni taqsimlash va shoshilinch yordam bo'yicha ko'rsatmalar berish. Oilaviy poliklinika va QOP lar bilan xamkorlikda ish olib borish.**

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit</b>	<b>6 kredit</b>
<b>O'quv modul yakunida bilishi lozim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tinglovchi dispetcher fuqarolar murojaatlarini qabul qilishni;</li> <li>- Murojaatlarini qilgandan keyin tez tibbiy xizmat stansiyasi imkoniyatidagi tez tibbiy yordam ko'rsatishga zarur ro'yxat bo'yicha dori – darmon resurslarini to'g'ri taqsimlashi;</li> <li>- Tez tibbiy yordam ko'rsatish brigadasi tarkibi, tez yordam avtomashinasi va tez yordam uchun kerak va o'zi telefon orqali bemolarning ahvolini inobatga olgan holda birinchi yordam ko'rsatishini tushuntirishni</li> <li>- Telefon orqali dispetcher protokollari ma'lumotlari to'g'risida ko'rsatmalar berishni;</li> </ul>

	- Oilaviy poliklinikalar bilan hamkorlik ishini yo‘lga qo‘yishni.
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim</b>	Tinglovchi dispetcher fuqarolar murojaatlarini qabul qilgandan keyin tez tibbiy xizmat stansiyasi imkoniyatidagi tez tibbiy yordam ko‘rsatish brigadasi, tez yordam avtomashinasi va dori – darmon resurslarini to‘g‘ri taqsimlashi kerak va o‘zi telefon orqali bemolarning ahvolini inobatga olgan holda birinchi yordam ko‘rsatishni bajara olishi kerak.
<b>O‘quv moduli mazmuni</b>	Tez tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatida resurslarni taqsimlash va shoshilinch yordam bo‘yicha ko‘rsatmalar berish. Oilaviy poliklinika va QVPlar bilan hamkorlikda ish olib borish:dispetcher fuqarolar murojaatlarini qabul qilgandan keyin tez tibbiy xizmat stansiyasi imkoniyatidagi tez tibbiy yordam ko‘rsatish brigadasi, tez yordam avtomashinasi va dori – darmon resurslarini to‘g‘ri taqsimlashi kerak va o‘zi telefon orqali bemolarning ahvolini inobatga olgan holda birinchi yordam ko‘rsatishini tushuntirish zarur. Oilaviy poliklinikalar bilan hamkorlikda ish olib borish. Fuqaro murojati bo‘yicha ko‘rsatilgan yordamdan keyin shu fuqaro haqida o‘zi yashash manzilidagi oilaviy poliklinikani xabardor qilish.
<b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston Respublika Shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi. “Tez tibbiy yordam dispetcherlari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma”. – Toshkent-2022 yil</li> <li>2. Sog‘liqni saqlash vazirining 2017 yil 31 mart 131-sonli bo‘yruq‘iga asosan “Tez tibbiy yordam chaqiruvlarini qabul qilishning dispetcherlik saralash bayonomalari”.ТОШКЕНТ- 2017 йил</li> </ol>

### 3.2.9. Modul: Dispetcherlik xizmatida yuridik javobgarlik . Ruxiy kritik xolatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O‘quv modul yakunida bilishi lozim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tinglovchi dispetcherlik xizmatida yuridik javobgarlik to‘g‘risida;</li> <li>- Asosiy huquqiy konsepsiya qoidalarini;</li> <li>- Jjavobgarlikni;</li> <li>- Kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni tashkil etishni;</li> <li>- Dispetcherning huquq va majburiyatlarini;</li> <li>- Dispetcherlar ruhiy kritik holatlarda o‘z - o‘zini boshqarishni va nazorat qilishni;</li> <li>- Stress va uning turlari, stressning uchta stadiyasini, yaxshi va yomon stress holatlarini;</li> </ul>

	- Dispetcherda stressning umumiy sabablarini bilishlari lozim.
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim</b>	Tinglovchi dispetcherlik xizmatida yuridik javobgarligini, Javobgarlikni his qilishlari, o‘z xizmatiga sovuqqonlik bilan yondoshmaslik, patsientlar bilan qo‘pol muomalada bo‘lmaslik, patsientni tashlab ketib qolmaslik, kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni tashkil etishni bilishlari shart. Dispetcher har qanday holatda o‘z-o‘zini boshqarishni bilishi va nazorat qilishni
<b>O‘quv moduli mazmuni</b>	Dispetcherlar ruhiy kritik holatlarda o‘z- o‘zini boshqarishni va nazorat qilishni, stress va uning turlari, stressning uchta stadiyasini, yaxshi va yomon stress holatlarini, dispetcherda stressning umumiy sabablarini bilishlari Tez tibbiy yordam ko‘rsatish vokea sodir bo‘lgandan so‘ng, iloji boricha, erta muddatlarda amalga oshirilishi kerak. Kuchli qon ketish, elektrdan shikastlanish, cho‘kish, bo‘gilish, yurak faoliyatining to‘xtashi va boshka qator x,olatlarda birinchi tibbiy yordam zudlik bilan, kechiktirmay ko‘rsatilishi lozim. Agar bir paytda bir necha kishi jaroxat olsa, ko‘rsatiladigan yordam muddati va ketma-ketligi aniklanadi. Bolalarga va shoshilinch yordamga muxtoj kishilarga kerakli yordam birinchi navbatda ko‘rsatiladi. Ko‘p sonli va ko‘shimcha jaroxat olgan kishilarga birinchi tibbiy yordam kursatishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning ketma-ketligi aniklanishi kerak. Birinchi tibbiy yordamning xamma usul-amallarini extiyot bo‘lib va avaylab bajarish lozim. Kupol xarakatlar kilinadigan bo‘lsa, bu shikastlangan kishiga zarar kilishi va uning axvolini yomonlashtirishi mumkin. Birinchi tibbiy yordamni bir emas, balki ikki yoki bir necha kishi kursatadigan bulsa, u xolda kelishib ish kurish kerak. Bunda yordam ko‘rsatayotganlarning biri boshlik bulib, birinchi tibbiy yordamning barcha usul-amallari bajarilishiga rahbarlik qilib turishi lozim.
<b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b>	1. Гаппаров М. “Тиббиёт психологияси” Ўқув қўлланма. – Тошкент-2011йил. 2. O‘zbekiston Respublika Shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi. “Tez tibbiy yordam dispetcherlari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma”. – Toshkent-2022 yil

**3.2.10. Modul: Favqulodda vaziyatlar ( F.V.) haqida tushuncha va ular oqibatida zarar ko‘rganlarga ( jabrlanganlarga) tibbiy yordam ko‘rsatishning asosiy qoidalari**

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit</b>	<b>6 kredit</b>
---	-----------------

<p><b>O‘quv modul yakunida bilishi lozim</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tinglovchi favqulotda vaziyatlar va ularning tasnifi;</li> <li>- Favqulotda vaziyatlarni baholashni;</li> <li>- Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatishni;</li> <li>- Favqulotda xolatda aholini saralashni;</li> <li>- Evakuatsiya qilishni;</li> <li>- Shoshilinch xolatlarda o‘z-o‘ziga va bir-biriga yordam berishni targ‘ib qilishni;</li> <li>- Favqulotda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha, ko‘p uchraydigan kritik va shoshilinch holatlarda malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni;</li> </ul>
<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim</b></p>	<p>Tinglovchi modul yakunida favqulotda xolatlarda jabrlanuvchilarga yordamni to‘g‘ri ko‘rsatish ,sun‘iy nafas berishni («og‘izdan og‘izga»,«og‘izdan burunga», «Ambu» qopchasi bilan). Yurak-o‘pka reanimatsiyasi (YuO‘R) ni erta boshlash ,Erta defibrilyatsiya , malakali darajada xayotiylikni ushlab turish yordamini erta boshlash ixtisoslashtirilgan usullari.</p>
<p><b>O‘quv moduli mazmuni</b></p>	<p>Favqulotda xolat mayyan bir xududda sodir bo‘lgan baxtsiz xodisa,tabiiy ofatlar,xalokatlar, inson xayotiga, , sog‘ligiga yoki atrof muxitga yetkazadigan tabiiy yoki boshka ofatlar.</p> <p>Favkulotda xolatlar sodir bo‘lganda xavfli xududdan shikastlanganlarni maxsus gurux xodimlari tomonidan xavfsiz joylarga olib chikiladi;</p> <p>Ikkinchi gurux tomonidan shikastlanganlar axvoli baxolanib saralanadi ya’ni:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Xayotiy ko‘rsatkichlari manfiy bo‘lganlarga - kora lenta;</li> <li>- Zudlik bilan tibbiy yordam ko‘rsatish kerak bo‘lganlarga-kizil lenta;</li> <li>- Axvoli o‘rtacha og‘irlikda va konikarli bo‘lganlarga-sariq yoki yashil lenta.</li> </ul> <p>Uchinchi gurux saralangan bemorlarni lentasini rangiga karab yordam ko‘rsatadi.</p> <p>To‘rtinchi gurux yordam ko‘rsatilganlarni gospitalizatsiya uchun transportirovka kiladi.</p>
<p><b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. A. R. Abdullayev, B. B. Usmonov. ”Shoshilinch tibbiy yordam asoslari”. – Toshkent, 2019.</li> <li>2. Yu.Allayorov, Tojiboev “Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.” Tashkent-2017 y.</li> <li>3. D.M.Sabirov, A.Z.Gazizov “Birinchi tibbiy yordam” Toshkent-2017y.</li> <li>4. V.N.To‘rakulov F.A.Qurbonov K.R.Tongotarova “Anesteziologiya va reanimatsiyada xamshiralik parvarishi.2019 yil.</li> </ol>

**3.2.11. Modul: Tez tibbiy yordamning asosiy konsepsiyasi va dispetcherlik pratakollari bilan ishlash (shok, koma va qon ketishlarda shifoxonagacha tez yordam ko'rsatish).**

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O'quv modul yakunida bilishi lozim</b>	Tinglovchilar tez tibbiy yordamning asosiy konsepsiyasi va dispetcherlik protokollari bilan ishlashni o'rgatish. Odam organizmining asab tizimi, yurak qon tomir, ovqat hazm qilish tizimi, nafas a'zolari va siydik ajratish tizimlari ularning tuzilishi va funksiyasi to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash va organizmda kuzatiladigan shok va koma xolatlari, shok va koma turlari va ularda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatishni. Shok va koma xolatidagi bemorlarni jadal davolash tadbirlari bilan tanishish, o'rganishdan iborat.
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim</b>	Tinglovchi qon bosimi, puls, nafas olish tezligini o'lchashni, shokda kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazishni, gemodinamik varaqani to'ldirishni. Komada kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazishni, gemodinamik varaqasini to'ldirishni, koma xolatida bemorlarni parvarishlashni. dispetcherlik protokollari bilan ishlashni. Qon ketganda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatishni.
<b>O'quv moduli mazmuni</b>	Organizmda kuzatiladigan xavfli holatlar; Shok va komada tez tibbiy yordam ko'rsatish. Shok omillarini bartaraf qilish. Hayot uchun muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish. Fiziologik ehtiyojlarni qondirishda yordam berish (ovqatlanish, hojat chiqarish, shaxsiy gigiena). Bemor oila a'zolariga ruhiy yordam berish. Komaga tushgan bemorlarning holatini baholash. Koma holatidagi bemorlarga kechiktirib bo'lmaydigan yordam ko'rsatish. Hayot uchun muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish. Fiziologik ehtiyojlarni qondirishda yordam berish (ovqatlantirish, hojat chiqarish, shaxsiy gigiena). Bemor oila a'zolariga ruhiy yordam berish. Qon ketishni vaqtinchalik va uzil-kesil to'xtatish usullari. Qon ketishning asoratlari. Asosiy qon to'xtatuvchi vositalar. O'tkir qon yo'qotgan bemorlarga tez tibbiy yordam ko'rsatishda ishtirok etish. Qon ketishini vaqtinchalik to'xtatish. Bemor ahvolini baholay olish va kuzatuv varaqasiga qayd etish. Qon to'xtatishning uzil-kesil usullarida qatnashish
<b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublika Shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi. "Tez tibbiy yordam dispetcherlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma". – Toshkent-2022 yil</li> <li>2. Tez tibbiy yordam xizmati dispetcherlari uchun milliy klinik</li> </ol>

	<p>bayonnomalar . Toshkent- 2022 yil</p> <p>3. A. R. Abdullayev, B. B. Usmonov. "Shoshilinch tibbiy yordam asoslari". – Toshkent, 2019.</p> <p>4. Yu.Allayorov, Tojiboev "Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari." Tashkent-2017 y.</p> <p>5. D.M.Sabirov, A.Z.Gazizov "Birinchi tibbiy yordam" Toshkent-2017y.</p> <p>6. V.N.To‘rakulov F.A.Qurbonov K.R.Tongotarova "Anesteziologiya va reanimatsiyada xamshiralik parvarishi.2019 yil.</p>
--	---

**3.2.12. Modul: Inson xayotiga xavf soluvchi holatlarda (gipertermiya, zaxarlanishlar, kuyish, issiq va sovuq urishi, jaroxatlanish, shikastlanish, qorinda og‘riq, nafasni qiyinlashuvi, ko‘krak qafasida og‘riq, cho‘kish, va x.k ) tez tibbiy yordam ko‘rsatish.**

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit</b>	<b>20 kredit</b>
<b>O‘quv modul yakunida bilishi lozim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tinglovchi eng ko‘p uchraydigan inson xayotiga xavf soluvchi holatlar to‘g‘risida bilimni oshirish;</li> <li>- Gipertermiyada</li> <li>- Zaxarlanishlarda</li> <li>- Kuyishda</li> <li>- Issiq va sovuq urishida</li> <li>- Jaroxatlanishda</li> <li>- Shikastlanishda</li> <li>- Qorinda og‘riqda</li> <li>- Nafasni qiyinlashuvida</li> <li>- Ko‘krak qafasida og‘riqlarida</li> <li>- Cho‘kislarda tez tibbiy yordam berish ko‘rsatishni bajara olishi lozim.</li> </ul>
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim</b>	<p>Tinglovchi eng ko‘p uchraydigan inson xayotiga xavf soluvchi holatlarda; Inson xayotiga xavf soluvchi xolatlarda: Gipertermiya, dori vositalari va biologik moddalardan zaharlanish, kuyish va issiq urishlarning klinik belgilari va shoshilinch yordam ko‘rsatish</p> <p>O‘tkir nafas yetishmovchiligi , nafas yo‘llariga yot jismlar tushganda, bronxial astmalarda, turli xildagi jaroxatlarda, o‘tkir qorin sindromlarida tez tibbiy yordamni ko‘rsata olish</p> <p>O‘tkir nafas yetishmovchiligi , nafas yo‘llariga yot jismlar tiqilganda, turli xildagi jaroxatlarda, o‘tkir qorin sindromlarida tez tibbiy yordamni ko‘rsata olish</p>

	<p>Ko'krak qafasining yopiq jaroxatlari pnevmotraks, gemotorakslarda shoshilinch yordam ko'rsatish.</p> <p>Cho'kanda xar - xil xashoratlarda chaqanda birinchi yordam ko'rsatish, xolatni baxolash, Nafas olish sonini aniqlash, pulsni aniqlash, arterial bosimni o'lchash, markaziy va periferik venalar katetirizatsiyasi, zaxarlanishlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish, infuzion terapiya.</p>
<p><b>O'quv moduli mazmuni</b></p>	<p>Zaharlanish – zaharli modda organizmga me'da ichak, nafas yo'llari orqali, muskul orasiga, venaga yuborilganda ro'y beradigan kasallik holati. Zaxarlanishga saba bo'ladigan, modda miqdori (dozasi) qanchalik kam bo'lsa, uning toksikligini ya'ni zaharliligi shunchalik kuchli namoyon bo'ladi. Kundalik hayot tajribasidan ma'lumki, davo dozalari ichiladigan ko'pgina kimyoviy preparatlar organizmning birorta kasallik tufayli buzilgan qator funksiyalarining tiklanishiga yordam beradi, ya'ni da'vo qiladi. Shunday qilib, o'sha bitta kimyoviy preparatning o'zi bir qator hollarda organizmga ta'sir etishiga qarab ham zahar, ham dori bo'lishi mumkin.</p> <p><b>Kuyish deb</b> to'qimalarni yuqori xarorat, kimyoviy omillar, nur va elektr toki ta'sirida shikastlanishiga aytiladi.</p> <p>Termik kuyishlar. Termik kuyishlar umumiy kuyishlarni 90-95 % ini tashkil etadi. Termik kuyishlarga alanga, qaynoq suyuqliklar, bug', issiq buyumlar sababchi bo'lishi mumkin. Kuyishga javoban tanada ruy beradigan patologik xolat kuyish kasalligi deyiladi: Uning quyidagi davrlari farqlanadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) kuyish shoki</li> <li>2) o'tkir kuyish toksemiyasi</li> <li>3) o'tkir septikotoksemiya</li> <li>4) rekonvalessensiya.</li> </ol> <p>Kuyish kasalligini og'irligi kuygan maydonning xajmiga va to'qimalarni qanchalik chuqur kuyganiga bog'liq.</p> <p><b>Sovuq olish.</b> To'qimalarni past xarorat ta'sirida shikastlanishi sovuq olish deyiladi. Sovuq olishda xavo xarorati, kiyim, namlik, shamol, kishining shaxsiy moslashuv xususiyatlari rol o'ynaydi. Masalan, sovuq mintaqada yashovchilar ancha moslashgan bo'ladi. Alkogol qon tomirlarni kengaytiradi va issiqlikni yo'qolishiga olib kelib, sovuq olishni kuchaytiradi.</p> <p>Teri va shilliq pardaning mexanik ta'sir natijasida butunligi buzilishiga <b>jarohatlar</b> deyiladi. Jarohatdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar – prognoz quyidagilarga bog'liq bo'ladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. qon yo'qotish miqdoriga;</li> </ol>

	<p>2. travmatik shokning og‘irligiga;</p> <p>3. mahalliy va umumiy infeksiya borligiga;</p> <p>4. hayotiy a‘zolarining shikastlanishiga.</p> <p>Jarohatlarning klinikasi mahalliy va umumiy simptomlar yig‘indisidan iborat: mahalliy belgilarga og‘riq, teri butunligining buzilishi – jarohat – uning ochilib turishi, qon ketish kiradi. Umumiy belgilarda esa o‘tkir anemiya, infeksiya farq qilinadi. Mahalliy o‘zgarishlarga bevosita qon ketishi va og‘riq kiradi. Jarohatlanganda xamma vaqt qon ketishi tashqi bo‘lmasligi mumkin. Zararlangan tomirdan qon to‘qimalariga, bo‘shliqlarga yig‘ilib, tarqaluvchi gemotomalarni xosil qilishi mumkin.</p>
<b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b>	<p>1. B.N.Turakulov, L.X.Musajonova “ Shoshilinch tez tibbiy yordamda xamshiralik ishi” o‘quv qo‘llanma A. Navoiy nomli nashriyot -2019</p> <p>2. A. R. Abdullayev, B. B. Usmonov. ”Shoshilinch tibbiy yordam asoslari”. – Toshkent, 2019.</p> <p>3. Yu.Allayorov, Tojiboev “Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.” Tashkent-2017 y.</p> <p>4. D.M.Sabirov, A.Z.Gazizov “Birinchii tibbiy yordam” Toshkent-2017y.</p> <p>5. V.N.To‘rakulov F.A.Qurbonov K.R.Tongotarova “Anesteziologiya va reanimatsiyada xamshiralik parvarishi.2019 yil.</p>

### 3.2.13. Modul: Terminal holatlar, yurak – o‘pka reanimatsiyasi. Kardiologik shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit</b>	<b>18 kredit</b>
<b>O‘quv modul yakunida bilishi lozim</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tinglovchi terminal holat haqida tushuncha;</li> <li>- Terminal holat tasnifnii;</li> <li>- Yurak-o‘pka reanimatsiyasining umumiy va ixtisoslashtirilgan usullarini;</li> <li>- Yurak faoliyati tiklangandan so‘ng kilinadigan parvarishlar rejasini;</li> <li>- Parvarishlarni amalga oshirish va samaradorligini baxolashni/</li> </ul>
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim</b>	Tinglovchi bemor bilan kommunikatsiya qoidalarini, terminal davrda bemorlarni fizikal tekshirishni, terminal davrda bemorlarda kasallik belgilarini yengillashtirishni, organizm xayotiy muxim a‘zolari xolatining monitoringini, nafas yo‘llari

	<p>o'tkazuvchanligini ta'minlashni, Geymlix usulini, sun'iy nafas berishni («og'izdan og'izga», «Ambu» kopchasi bilan), bilvosita yurak massajini, elektr defibrillyatsiya qilishni. Bemor bilan muloqot qoidalarini. Bemorni psixikasini muxofaza qilish, ya'ni aniq tashhisni e'lon qilmaslik. Terminal davrda bemorlarni fizikal tekshirish: arterial bosimni o'lchash, pulsni sanash, nafas olishni ni aniqlash. Og'riqni baholash. Bemorning umumiy holatini baholash. Terminal davrda bemorlardagi kasallik belgilarini yengillashtirishni. Doimiy og'riqni bartaraf qilish va yengillashtirishga yo'naltirilgan yordam ko'rsatish. Boshqa belgilarni bartaraf qilish va yengillashtirishga yo'naltirilgan yordam ko'rsatish haqida amaliy ko'nikmalar va tajribaga ega bo'lishi kerak.</p>
<p><b>O'quv moduli mazmuni</b></p>	<p>Terminal holat haqida tushuncha. Agonal oldi, agonal faza, klinik o'lim haqida tushuncha. Terminal davrning turli xil kasalliklardagi davomiyligi. Klinik o'lim tushunchasi, klinik o'lim belgilari. Yurak to'xtashi turlari va sabablari. Klinik ulim belgilari.. Biologik o'lim belgilari. Yurak faoliyati tiklangandan so'ng kilinadigan parvarishlar rejasi. Parvarishlarni amalga oshirish va samaradorligini baxolash. Polliativ parvarish haqida tushuncha. Xospis parvarish haqida tushuncha. Terminal davrda bemorlarda hamshiralik parvarishining maqsadi. Terminal parvarishda hamshiraning tutgan o'rni. Terminal davrda bemorlarning jismoniy azoblanishi. Bemorlarning doimiy og'riq natijasida kelib chiqqan azoblanishi. Boshqa sabablarga ko'ra kelib chiqqan azoblanish. Total og'riq haqida tushuncha. Total og'riq konsepsiyasi: fizik, ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy qayg'urish. Bemorni boshqa sabablardan azoblanishi: umumiy xolsizlik, anoreksiya, nafas olishning qiyinlashuvi. Terminal davrda bemorlarning jismoniy azoblanishini bartaraf qilish va yengillashtirishda yordam ko'rsatish. Doimiy og'riqni bartaraf qilish va yengillashtirishga yo'naltirilgan yordam ko'rsatish. Boshqa belgilarni bartaraf qilish va yengillashtirishga yo'naltirilgan yordam ko'rsatish.</p> <p>Yaqinlashayotgan o'limni qabul qilishning ruhiy jarayoni va bemorni qo'llab-quvvatlash. Yaqinlashayotgan o'limni bemor tomonidan qabul qilinishining ruhiy jarayoni. Bemor va uning oila a'zolarini ruhiy qo'llab-quvvatlash.</p> <p>Yurak –qon tomir kasalliklari bo'yicha tushuncha : Miokard infarkti va uni asoratlari klinik belgilari va tez tibbiy yordam ko'rsatish</p>
<p><b>Foydalanadigan</b></p>	<p>1. B.N.Turakulov, L.X.Musajonova “ Shoshilinch tez tibbiy</p>

<b>adabiyotlar:</b>	<p>yordamda xamshiralik ishi” o‘quv qo‘llanma  A. Navoiy nomli nashriyot -2019  <b>2.</b> A. R. Abdullayev, B. B. Usmonov. ”Shoshilinch tibbiy yordam asoslari”. – Toshkent, 2019.  <b>3.</b> Yu.Allayorov. Tojiboev “Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.” Tashkent-2017 y.  <b>4.</b> D.M.Sabirov, A.Z.Gazizov “Birinchi tibbiy yordam” Toshkent-2017y.  <b>5.</b> B.N.To‘rakulov F.A.Qurbonov K.R.Tongotarova “Anesteziologiya va reanimatsiyada xamshiralik parvarishi.2019 yil.</p>
---------------------	---

### 3.2.14. Modul: Yuqumli kasalliklar va o‘ta xavfli infeksiyalar aniqlanganda tez tibbiy yordam ko‘rsatish algoritmi.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit	12 kredit
<b>O‘quv modul yakunida bilishi lozim</b>	<p>Tinglovchi yuqumli kasalliklar va ularning turlari xaqida tushuncha. Epidemiologik jarayon, infeksiyani tarqalishini oldini olish va tez tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish chora tadbirlari. O‘ta xavfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda ko‘riladigan chora tadbirlar majmuasi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– kerakli material, modda, dori-darmon va transport bilan ta‘minlash tadbirlarini amalga oshirish;</li> <li>– karantinli xududdan chetga chikuvchi kishilarni kursatmalar buyicha tekshiruvdan o‘tkazishni tashkil etish;</li> <li>– yuklarni junatish va kabul kilib olishda sanitariya talablariga rioya kilish;</li> <li>– kasallikning tarkalishiga yo‘l kuymagan xolda ozik-ovkat maxsulotlarini ishlab chikarish, sotish, tashib keltirish va tashib ketish (ozik-ovkat sanoati konserni, "Uzbekturizm assotsiatsiyasi) ustidan sanitariya nazoratini kuchaytirish;</li> <li>– axolini sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash va suv xavzalarini zararsizlantirish (uy-joy va kommunal xujalik vazirligi);</li> <li>– sanitariya-gigiena norma va koidalariga, epidemiyaga karshi kurash koidalariga kat‘iy rioya kilish (barcha vazirlik, tashkilot va muassasalar);</li> <li>– karantin xududidagi barcha katta-kichik yo‘llarni kuriklash (ichki ishlar xarbiy kismolari);</li> </ul>
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim</b>	<p>Davolash-profilaktika muassasalari xodimlari tomonidan bemor uyda aniklanganda o‘tkaziladigan birlamchi chora-tadbirlar Bemorning oila a‘zolari va qo‘shnilarini bemordan ajratish.</p>

	<p>Bemorning uyiga uning karindosh-urug‘lari va boshkalarni ko‘ymaslik.</p> <p>Telefon orkali yoki tashkaridagi biror kishi orqali DPM bosh vrachiga yoki uning muoviniga shubxa kilingan kasallik tugrisida xabar berish. Bosh vrachdan maxsus ximoya kiyimi, dori-darmonlar, shoshilinch profilaktika vositalari, dezinfeksiyalovchi moddalar va bemor parvarishi uchun buyumlar surash.</p> <p>Dezinfeksiya ishlari utkazilmaguncha, bemor yotgan uydin buyumlarni chikarishni ta‘kiklash.</p> <p>Kanalizatsiya va vodoprovod suvidan foydalanishni ta‘kiklash.</p> <p>Vabo kasalligi gumon kilinganda tayyor ozik-ovkatlarni istemol kilishni ta‘kiklash.</p> <p>Bemorning axvoliga karab undan epidemiologik so‘rov o‘tkazish, u bilan mulokotda bo‘lganlarning familiyasi, ismi, sharifi, yashash joyini surishtirib bilish va kasallikning yashirin davri mobaynida ish va yashash joyida bulganlarning ruyxatini tuzish, kasallik manbaini aniklash.</p> <p>Bemorga kerak bo‘lgan tibbiy yordamni kursatish. Maxsus ximoya kiyimini kiyish, ulat va GVI kasalligiga shubxa kilingan xollarda esa shillik, kavatlar va tananing ochik, joylariga kushimcha ishlov berish.</p> <p>Joriy dezinfeksiya ishlarini bajarish (bemor ajralmalari, ko‘l yuvilganda tushgan suv va bemorning parvarish buyumlari).</p> <p>Kasallik o‘chogida epidemiologik gurux kelguncha qolish.</p> <p>Maslaxat guruxiga bemor hakida va o‘tkazilgan birlamchi chora-tadbirlar xakida axborot berish.</p>
<p><b>O‘quv moduli mazmuni</b></p>	<p>Har qanday yuqumli kasallikning paydo bo‘lishi, avj olib borishi va tarqalishi uchun omil mavjud bo‘lishi shart.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kasallik yuqtiradigan manbai</li> <li>2. Kasallikni yuqish va tarqalish yo‘llari</li> <li>3. Ana shu yuqumli kasallikla beriluvchan odamlarning bo‘lishi.</li> </ol> <p>Yuqumli kasalliklar boshqa kasalliklardan quyidagi 4 xususiyat bilan farq qiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuqumli kasallikni tirik patogen mikroblar qo‘zg‘atadi.</li> <li>2. Bemor o‘z navbatida kasallik manbai bo‘ladi va uni boshqalarga yuqtirishi mumkin.</li> <li>3. Bemor qaysi yuqumli kasallik bilan kasallansa uning organizmda o‘sha kasallikka qarshi immunitet hosil bo‘ladi va shu kasallikning qaytadan yuqishiga qarshilik ko‘rsatadi.</li> <li>4. Yuqumli kasalliklar muayyan davrlar bilan, ya‘ni siklik tarzda rivojlanadi va so‘nadi.</li> </ol> <p>Qo‘zg‘atuvchilarning kelgan, infeksiya yuqqan organizmdan</p>

	<p>yuqmagan organizmga o'tishini ta'minlaydigan usullar yig'indisi infeksiyaning o'tish mexnizmi deyiladi. Qo'zg'atuvchining organizmda birlamchi joylashgan joyiga qarab 4 xil o'tish mexanizmi farqlanadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Fekal-oral – ichakda joylashgan bo'lsa</li> <li>2. Havo-tomchi – nafas yo'llarida joylashgan bo'lsa</li> <li>3. Transmissiv – qon sistemasida joylashgan bo'lsa</li> <li>4. Qo'zg'atuvchilarning atrof-muxitdagi narsalar orqali yoki bevosita kontakt yo'li bilan o'tishi.</li> </ol>
<b>Foydalanadigan adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. X.A.Abduqodirov, Sh.Sh.Shovaxobov “ Yuqumli kasalliklar va bemorlar parvarishi.”</li> <li>2. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil</li> <li>3. O'zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigienik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19</li> </ol>

### Simulyatsion kurs (tibbiy trening ) mazmuni

<b>№</b>	<b>Simulyatsiya uchun maxsus anjomlar</b>	<b>O'SK ni o'tkazish joyi</b>	<b>Shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar</b>
1	GD/H 126 – Advancyed Nursing Manikin	Simulyatsion xona	Bemorni xolatini baxolash, suniy nafas berish ( og'izdan – og'izga , og'izdan burunga va Ambu qopchasida) , yurakni bilvosita massaj qilish, pulsni sanash, AB o'lchash, v/i , m/o ineksiyalar qilish.
2	Identifying youbr modei LF03716U-Light	Simulyatsion xona	Bemorda nazofaringeal va orofaringeal havo o'tkazish naychasini o'lchash va ishlatishni namoyish qilish traxeyani intubatsiya qilish

## 4.0 DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish ilmiy-amaliy markazi Andijon filiali qoshidagi 103 stansiyasi o'quv bazalari.

**4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ro'yxati:**

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan PDF ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustaxkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

### 4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI

#### 4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-xuquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 16 mart № -4985  
“Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 16 mart № 2838 “ Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy – texnika bazasini mustaxkamlash chora- tadbirlari to'g'risida” gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni Saqlash Vazirligining Buyrug'i  
№ 102 2017yil 17 mart O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 16 mart “ Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida” gi PF- 4985onli Farmoni xamda “ Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy- texnika bazasini mustaxkamlash chora- tadbirlari to'g'risida”gi PQ -2838- sonli qarori haqida.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni Saqlash Vazirligining Buyrug'i  
№ 131 2017yil 31 mart  
“ Shoshilinch tibbiy yordam xizmatini yanada takomillashtirish va moddiy- texnika bazasini mustaxkamlash borasida belgilangan chora- tadbirlarning ijrosinitashkil etish haqida.”
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori № PQ -3494 2018yil 25 yanvar “ Shoshilinch tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida”
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori № PQ -3494 2018yil 25 yanvar  
“O'zbekiston Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chivaradigan kassalik tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori № PQ -3973 2018yil 16 oktabr “O‘zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni Saqlash Vazirining 2019 yil 17 iyuldagi № 161 –son buyrug‘iga ilova “ Tibbiyot xodimlarining odob- axloq kodeksi”

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni;

12. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil

O‘zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, me‘yorlari va gigienik normativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19

#### **4.3.2.Elektron ta‘lim resurslari**

UzR Oliy va urta maxsus ta‘lim vazirligi – [vvv.edu.uz](http://vvv.edu.uz)

2. UzR Soglikni saklash vazirligi -[vvv.minzdrav.uz](http://vvv.minzdrav.uz)

3. Medpoisk <http://vvv.medpoisk.ru/>

4. Russkiy meditsinskiy server <http://vvv.rusmedserv.com/>

5. Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>

6 [vvv.adti.uz](http://vvv.adti.uz)

## 5. YAKUNIY ATTESTATSIYA

### 5.1. Yakuniy attestatsiyaga kuyiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya UzR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugi 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baxolash tugrisidagi Nizom» ga asosan utkaziladi.

**Maksad** – tinglovchilarning malaka oshirish kursida olgan bilimi, shakllangan kunikma va kasbiy kompetensiyalarini rejalashtirilgan ukuv natijalariga muvofikligini ta'minlash, ulardan kasbiy faoliyati masalalarini xal kilishda foydalanish orkali axoliga tibbiy xizmat kursatish sifatini yaxshilashdan iborat.

Malaka oshirish kursi boshida tinglovchilar ularning bilim va kunikmalarini nazorat kilish tartibi va koidalari bilan tanishtirilishi lozim.

Umumiy malaka oshirish kurslarida tinglovchilarning bilim saviyasi va uzlashtirish darajasining davlat talablariga muvofikligini aniklash uchun kuyidagi nazorat turlarini utkazish nazarda tutiladi:

1. Boshlang'ich nazorat (kirish testi);
2. Oraliq nazorat
3. Yakuniy attestatsiya

**Boshlangich nazorat (kirish testi)** – o'qish boshlanishidan oldin tinglovchilarning tayanch bilimlarini aniklash maksadida ukishning birinchi kunida malaka oshirish kursi mavzusi doirasida tayyorlangan nazorat savollari, test topshiriklari asosida ogzaki surov yoki test sinovlari tarzida amalga oshiriladi ( 1 marta).

